



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

753-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 18-dekabrda 847-son qarori ijrosi haqida"gi 626-6-0-Q/24-son qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son hamda "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF-80-son farmonlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartiblarini yanada takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 18-dekabrda 847-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 626-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 626-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 847-son qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi:

elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va issiq suvni hisobga olish uskunalari davriy qiyoslashdan o'tkazishni proaktiv shaklda amalga oshirishi;

xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish hamda bojxona brokeri faoliyatlarini yuritishning pasportlarini joriy etishi;

nodavlat arxivlarni tashkil etish bilan bog'liq tartib-taomillarni soddalashtirishi;

soliq xizmati organiga integratsiya qilingan elektron platformalarda o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatini yaratishi;

nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatishni elektron platforma orqali amalga oshirishni joriy etishi;

ko'zi ojiz, eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan hamda yozish imkoniyati cheklangan talabgorlar uchun chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha malaka imtihonini kompyuterda maxsus dasturda o'tkazishi va ularga yordamchi (assistent) birlashtirishi;

tibbiy faoliyat uchun litsenziya bilan birga rentgen uskunasi bilan foydalanishga ruxsatnoma olishi;

xavfli yuklarni tashish uchun sig'imlarning yaroqliligi to'g'risida xulosa bilan birga yadroviy va radioaktiv materiallar, radiatsiya manbalari, radioaktiv chiqindilar hamda qurilmalarni tashish shartlari va usullarining sanitariya qoidalariga muvofiqligi to'g'risida xulosa olishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Adliya bo'limi (A.Qodirov) manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabdagi 847-son qaror talablari asosida ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov